


2021- yil yanvar-iyun oylarida Toshkent viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent viloyatida jami **3941,1** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2020- yilning mos davriga nisbatan **117,2 %**ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi %da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 3,8 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 500 taga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili, bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **111,8 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **52,3 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **118,0 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **7,7 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **119,1 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **39,9 %**) o'sishidir.




Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da
	2020- yil 1- iyul	2021- yil 1- iyul	
Toshkent viloyati	3312	3811	115,1
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	160	181	113,1
Olmaliq	199	226	113,6
Angren	251	272	108,4
Bekobod	166	180	108,4
Ohangaron	102	124	121,6
Chirchiq	280	296	105,7
Yangiyo'l	79	90	113,9
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	92	97	105,4
Ohangaron	72	86	119,4
Bekobod	98	112	114,3
Bo'stonliq	118	144	122,0
Bo'ka	92	123	133,7
Quyi Chirchiq	84	99	117,9
Zangiota	222	263	118,5
Yuqori Chirchiq	196	225	114,8
Qibray	321	391	121,8
Parkent	98	112	114,3
Piskent	77	78	101,3
O'rta Chirchiq	213	218	102,3
Chinoz	107	126	117,8
Yangiyo'l	151	189	125,2
Toshkent	134	179	133,6



Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni 2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra (ulushi %da)




Ma'lumot uchun: Viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Qibray tumanida (10,2 %), Chirchiq (7,8 %) va Angren shaharlarida (7,2 %) qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **788,0** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **113,3 %** oʻsish koʻrsatkichiga erishildi. Jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan **0,7 %** punktga kamaydi, **20,0 %**ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, %da



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Zangiota (jami qurilish ishlari hajmining **13,6 %**i yoki 2020- yilning mos davriga nisbatan **104,2%**), Qibray (jami qurilish ishlari hajmining **14,7 %**i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **188,7 %**) va Yuqori Chirchiq (jami qurilish ishlari hajmining **9,3 %**i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **207,3 %**) tumanlariga toʻgʻri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, %da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar


- 2020- yil yanvar-iyun
- 2021- yil yanvar-iyun

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **55,2 %** to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-iyun oylari ko'rsatkichiga nisbatan **6,5 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **105,2 %**ni tashkil etgan holda **2175,6** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **24,8 %**ni tashkil etdi yoki **977,5** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **163,9 %**ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **129,8** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi yoki 2020- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan o'sish sur'ati **2,3 barobar** oshdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3831,3** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **7,3 barobar** oshdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda **3,3 %** va **96,7 %**ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, %da



Davlat mulki



Nodavlat mulk



Hududlar kesimida qurilish ishlari, 2021- yil yanvar-iyun oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Jami qurilish pudrat ishlari hajmida hududlarning ulushi, %da
Toshkent viloyati	3941,1	117,2	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	152,2	105,7	3,9
Olmaliq	148,6	110,3	3,8
Angren	151,7	106,8	3,8
Bekobod	131,4	100,6	3,3
Ohangaron	109,9	106,8	2,8
Chirchiq	168,8	102,2	4,3
Yangiyo'l	78,5	100,5	2,0
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	90,3	105,2	2,3
Ohangaron	111,9	104,5	2,8
Bekobod	105,0	100,3	2,7
Bo'stonliq	189,7	100,3	4,8
Bo'ka	97,5	102,0	2,5
Quy Chirchiq	86,4	110,3	2,1
Zangiota	535,1	104,2	13,6
Yuqori Chirchiq	365,5	207,3	9,3
Qibray	578,8	188,7	11,9
Parkent	195,9	104,2	5,0
Piskent	107,3	101,0	2,7
O'rta Chirchiq	149,2	103,5	3,8
Chinoz	82,6	109,8	2,1
Yangiyo'l	142,6	105,6	3,6
Toshkent	162,4	101,5	4,1



Hududlar kesimida qurilish ishlari, 2021- yil yanvar-iyun oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

1 Zangiota t.
535,1

2

Qibray t.
578,8

3 Yuqori Chirchiq t.
365,5



Kichik hajm

(mlrd. so'm)

1 Yangiyo'l sh.
78,5

2

Chinoz t.
82,6

3 Quyi Chirchiq t.
86,4



Toshkent viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Aloqa telefoni: (71) 202-86-70